

## PENSIYA TA'MINOTI MOLIYAVIY RESURSLARINI SAMARALI BOSHQARISH MASALALARI

*Dilfuza Umarova, Nazira Yandasheva, Kamola Xanxodjayeva*  
*TDIU SMMT-78 guruh talabalari*

Bugungi kunda pensiya ta'minoti tizimini isloh etish dunyoning barcha mamlakatlari oldida tutgan dolzarb va muhim vazifalardan biriga aylandi. Pensiya ta'minoti tizimini isloh etishning asosiy sababi davlatning pensiyaga oid majburiyatlarini bajarish uchun moliyaviy resurslarning yetishmasligidir va bu muammo aholining keksayib borishiga muvofiq kuchayib, murakkablashib boradi va mamlakatlarda vujudga kelgan iqtisodiy, ijtimoiy va demografik vaziyatlardan kelib chiqib alohida kasb etadi.

Mamlakatimiz pensiya tizimini chuqur qiyosiy tahlil qilish va pensiya ta'minotining modernizatsiyalashni nazariy va amaliy jihatlarini kompleks tadqiq etish ijtimoiy siyosatni manzilliligini kuchaytirishning dolzarb, ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo'lgan ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. O'zbekistonda mustaqillikning dastlabki yillarida bozor munosabatlariga o'tish iqtisodiy munosabatlarda turg'unlik elementlarini kuchaytirib yubordi.

Mamlakat yalpi ichki mahsuloti ishlab chiqarishini qisqarishi, ishsizlikni ortishi, byudjet to'lovlari va aholi daromadlarini pasayishi pensiya tizimi faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Mamlakatda vujudga kelgan iqtisodiy holat, aholini pensiyaga chiqqandan so'ng munosib turmush sifatini ta'minlashga salbiy ta'sir ko'rsatgan inflyatsiyaning yuqori sur'atlari, aholi jamg'armalarini qadrsizlanishiga olib keldi. Ushbu vaziyatda pensiya tizimi aholini kam ta'minlangan qismiga nisbatan ijtimoiy muammolarni yumshatish vazifasini bajardi.

Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan 2022-2026 yillarda Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasining asosini ham, avvalambor, inson manfaatlarini ta'minlash bilan bog'liq vazifalar tashkil qiladi.

Hozirgi paytda pensiya ta'minoti tizimi eng muhim ijtimoiy himoya institutlaridan biri hisoblanadi. Uning samarali faoliyat yuritishi mamlakatimizning ijtimoiy farovonligi darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababdan mamlakatimizda istiqboldagi demografik va makroiqtisodiy holatini o'zgarishlarni inobatga olgan holda pensiya tizimini takomillashtirib borish, pensiya tizimining nodavlat shakllarini rivojlantirishga shart-sharoitlar yaratish, pensiya jamg'armasi mablag'laridan samarali foydalanish, pensiya tayinlashda hisob-kitob ishlarini soddalashtirish, pensiya tizimi moliyaviy barqarorligini ta'minlashda zamonaviy usullardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Bizningcha, O'zbekistonda iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida pensiya ta'minoti mablag'laridan foydalanish samaradorligini oshirishda quyidagi talablarga rioya qilish mamlakatimizda pensiya tizimini rivojlantirish, pensiya jamg'armasi faoliyati samaradorligini oshirish va aholi turmushi sifatida ijobiy ta'sir ko'rsatadi:

Birinchidan, pensiya fondlari daromadlarining barqarorligini ta'minlashda qo'shimcha moliyaviy manbalarni topishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish. Buning uchun xarbiy xizmatchilar pensiyalari davlat byudjeti xarajatlari hisobidan amalga oshirilishiga to'liq erishish; ijtimoiy jihatdan muhtoj bo'lgan yolg'iz qariyalarga ijtimoiy nafaqalar, to'lash tartibi va uni moliyalashtirish mexanizmlarini o'zgartirish; pensionerlarning pensiyalariga qo'shib beriladigan ustamalar pensiya jamgarmasi mablag'laridan emas, balki boshqa mablag'lar (masalan, davlat byudjeti, so'ngi yillarda fuqaro mehnat stajini o'tagan ish beruvchi tomonidan tashkil etilgan maqsadli fond va shu kabi xorij tajribasini mamlakatimizda qo'llash orqali tashkil etilgan boshqa fondlar) hisobidan moliyalashtirilishi ta'minlash.

Ikkichidan, mamlakatda kutilayotgan demografik o'zgarishlarni inobatga olgan holda imtiyozli pensiyaga chiqish tartibini qaytadan ko'rib chiqish. Mazkur chora-tadbirlarni amalga oshirish orqali O'zbekistonda pensiya jamg'armasining yillik xarajatlari sezilarli miqdorda qisqartirilishiga erishiladi.

Uchinchidan, mehnat bozoriga yangi kirib kelgan ishchi xodimlarning pensiya sug'urtasi badallarini jamg'arib boriladigai pensiya fondiga o'tkazib borish bilan bir qatorda jamg'arib boriladigan pensiya fondiga qimmatli qog'ozlar bozorida keng ko'lamli ishtirokini ta'minlash va ularning ichki va tashqi investitsion faoliyatini kengaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish.

Yuqorida qayd etilganlar bilan bir qatorda, fikrimizcha, Pensiya jamg'armasining daromadlar bazasini yanada mustahkamlash masalasida uning qo'shimcha moliyaviy manbalarini qidirib topish alohida rol o'ynashi kerak. Shu munosabat bilan bu yerda, bizning nazarimizda, quyidagilarga e'tibor bermoq lozim:

– pensiya amaliyotida hamon amal qilib kelayotgan “ish staji” tushunchasidan voz kechib, uning o'rniga amaliyotga “sug'urta staji” tushunchasini joriy etish maqsadga muvofiq. Buning ma'nosi shundan iboratki, yuqorida tartibning amaliyotga joriy etilishi pensiyalarni hisoblashda faoliyatning faqat majburiy pensiya badallari to'langan davrlarini hisobga olinishini anglatadi.

– davlat va jamiyat oldidagi alohida xizmatlari uchun (masalan, urushda yoki harbiy operatsiyalarni amalga oshirishda ishtirok etganlar, faxriy unvonlarga ega bo'lganlar va shunga o'xshashlar) pensiya summalariga qo'shiladigan ustamalar ham Pensiya jamg'armasining mablag'lari hisobidan emas, balki davlat byudjeti mablag'lari hisobidan moliyalashtirilmog'i lozim.

### 1. Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

2. T.S. Malikov, O. Olimjonov. Moliya - O'quv qo'llanma. T.:“Iqtisod-moliya, 2012

3. T. Malikov, N. Xaydarov. Davlat byudjeti - T.: Iqtisod-moliya, 2007
4. A.Ваҳобов, Т.Маликов. Молия: дарслик. - Т.: Ношир, 2011
5. T.Malikov, N.Haydarov - Budjet daromadlari va xarajatlari. O 'quv qo 'llanma, Toshkent:"IQTISOD-MOLIYA, 2007
6. Т.С. Маликов, П.Т. Жалилов. Бюджет-солиқ сиёсати. - Тошкент: Академнашр, 2011
7. Malikov TS, Moliya HN. umumdavlat moliyasi./O 'quv qo 'llanma. Toshkent:"Iqtisod-moliya. 2009;556.
8. Т.Маликов, О.Олимжонов. Молиявий менежмент. - Т.: Академия, 1999
9. А.Ваҳобов, Т.Маликов. Молия: умумназарий масалалар - Ўқув қўлланма. Тошкент,"Iqtisod-moliya, 2008
- 10.Ваҳобов АВ, Маликов ТС. Молия. Дарслик/Тошкент Молия институти. Тошкент:"Шарқ. 2010;804.
- 11.Хайдаров Н. Давлат молиясини бошқариш. Т.:«Академия. 2005.
- 12.Nazarova GG, Haydarov NX. International economic relations. Educational Manual. TDIU. 2005.
- 13.Назарова ГГ, Хайдаров НХ, Акбаров М. Халқаро иқтисодий муносабатлар. Т.: МЧЖ "RAM-S. 2007.
- 14.Хайдаров Н Т. Маликов-Бюджет: тизими, тузилмаси, жараёни. Ўқув қўлланма. 2007.
- 15.G'aybullayev, U O'roqov.O 'zbekiston Respublikasida budjet tizimi va jarayoni. O 'quv qo'llanma. - T.: Baktriapress, 2016
- 16.Yunusovich OR. Abduazimova Farzona Axmadqul qizi. Davlat maqsadli jamg'armalarining mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishdagi ahamiyati.". Science and Education" Scientific Journal/ISSN. 2022 Jun:2181-0842.
- 17.Ўроқов, У. "Ғазначилик тизимида бюджет маблағларидан самарали фойдаланиш масалалари." (2017).
- 18.Ўроқов, У. "Бюджет маблағларидан самарали фойдаланишни таъминлаш йўллари." (2017).
- 19.Urokov, Uchqun Yunusovich, and Zulayho Abdujobir Qizi Tursunova. "Actual issues in the management of external debt." Science and Education 3.12 (2022): 1023-1029.
- 20.Ўроқов У Ғайбуллаев О.Ўзбекистон Республикасида бюджет тизими ва жараёни: ўқув қўлланма. Тошкент: Baktria press.–21 б, 2016